

POYABZAL VA OYOQ IZLARINING TRASOLOGIK EKSPERTIZASI

Vohobjonov Avazbek Alisher o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich 328-guruh kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada trasologik ekspertiza tushinchasi, trasologik ekspertizasida poyabzal izlari, oyoq izlari va umumiy izlar tushunchasi, trasologik ekspertiza xulosasi va uning huquqiy asoslari va jinoyatlarni ochishda trasologik ekspertizaning zamonaviy imkoniyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Trasologik ekspertiza, iz, poyabzal izlari, oyoq izlari, ekspert xulosasi.*

Jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilayotgan tezkor-qidiruv tadbirlari, tergov va sud harakatlarida dalillarni to'plashda zamonaviy fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini, xususan kriminalistik ilmiy usul va vositalarni qo'llash amaliyotini yangi bosqichga olib chiqish lozim. Sodir etilgan huquqbuzarliklarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda o'z vaqtida aniqlash va qisqa muddatlarda fosh etish, ashyoviy dalillarning kriminalistik tadqiqotlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika bo'linmalarining bu boradagi imkoniyatlarini oshirish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Jinoyat odil sudlovi vazifalarini amalga oshirish jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etish va jazolashga qaratilgan bo'lib, har bir jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni qaror toptirish bilan uzviy bog'liqdir. Aynan jinoyat sodir etish hodisasini har taraflama o'rganish jinoyat sodir etishga aloqador shaxslarni ishonchli ravishda aniqlash imkonini beradi. Jinoyatchilar tomonidan moddiy olamda amalga oshiriladigan harakatlar, ularning xususiyatlariga mos ravishda o'zgarishlarni keltirib chiqaradi hamda moddiy obyektlarga bevosita ta'sir etuvchi shaxs, buyum sifatlarini o'zida aks ettiradi. Kriminalistikada bu kabi o'zgarishlar moddiy izlar deb atalib, jinoyatlarni tergov qilish uchun foydalaniladigan dalillarning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Moddiy izlarni aniqlash, ularni hisobga olish va tekshirish usullarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish, yuzaga kelish qonuniyatlarini zamonaviy texnika asosida tahlil qilish, shuningdek zamonaviy kriminalistik texnika sohasi bo'lgan izlar to'g'risidagi kriminalistik ta'lim yoki trasologiyaning vujudga kelishiga asos bo'ldi. Trasologiya kriminalistika fanining bo'limi bo'lib, iz hosil bo'lishi jarayonining nazariy asoslari, ularni qoldirgan obyektlarning tashqi tuzilishi, izlarning hosil bo'lish mexanizmlari, izlarni topish, hisobga olish va olib qo'yish usul va vositalari, shuningdek jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olishda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida izlar tadqiqotining umumiy va xususiy usullarini o'z ichiga oladi.

Iz – atrof muhitdagi o'zgarishni baholash va tahlil qilish uchun aniqlangan, mustahkamlangan ekspertiza manbaidir. Izlar o'zlarida mavjud bo'lgan jinoiy-huquqiy axborot va ma'lumotlarning signalli-belgili ifodalovchilaridir.

“Trasologik izlar” deganda, atrof-muhitda sodir bo‘lgan yoki bo‘layotgan shunday o‘zgarishlar tushuniladiki, ular natijasida bir narsaning tashqi tuzilishi boshqasida o‘z aksini topadi .

“Trasologik iz” tushunchasi – jinoyat ishlarining daliliy bazasini shakllashtirishda foydalaniladigan, qidiruv harakatlarida ishlatiladigan ma’lumotlarning butun yig‘indisini o‘z ichiga oladigan iz qabul qiluvchi va iz qoldiruvchi obyekt ta’sirida vujudga kelgan moddiy aks etish manbaidir”.

Tergov va sud amaliyotida ilk bora qo‘llangan izlar oyoq va qon izlari bo‘lganligini e’tirof etish uchun barcha asoslar mavjud. Poyafzal (oyoq) izlari hodisa sodir bo‘lgan joydagi moddiy sharoitlar orasidagi o‘zaro ta’sirning xususiyatlari hosil bo‘ladigan izlarning turini, poyafzal (oyoq)ning belgilarini izlarda aks etish qonuniyatlarini va izlarni aniqlashga imkon yaratadi. Poyafzal va oyoq izlarining trasologik ekspertizasi trasologik ekspertiza fanining bo‘limi bo‘lib, jinoyat sodir etilgan joyda gumonlanuvchilar tomonidan qoldirilgan poyafzal va oyoq izlarini o‘rganadi. Poyafzal va oyoq izlarining kriminalistik ahamiyati tergov qilinayotgan jinoyatning faktik holatlarini aniqlashda ulardan foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Poyafzal va oyoq izlari trasologik ekspertizasining predmeti:

- poyafzal va oyoq izlarining vujudga kelishi;
- poyafzal va oyoq izlarini topish;
- poyafzal va oyoq izlarini olish;
- poyafzal va oyoq izlarini qayd etish;
- poyafzal va oyoq izlarini tadqiq etish; – poyafzal va oyoq izlarini baholash;
- poyafzal va oyoq izlaridan foydalanish.

Poyafzal va oyoq izlari trasologik ekspertizasining obyekti: – hodisa joyini ko‘zdan kechirishda aniqlangan poyafzal izlari; – hodisa joyini ko‘zdan kechirishda aniqlangan poyafzal izlarining masshtabli fotosuratlari; – hodisa joyini ko‘zdan kechirishda aniqlangan poyafzal izlarining gipsli quyma nusxalari;

- hodisa joyini ko‘zdan kechirishda aniqlangan poyafzalning sirtiy izlari mavjud bo‘lgan daktotasmalar;
- hodisa joyida topilgan poyafzallar;
- hodisa joyidagi izlar shu shaxs tomonidan qoldirilgan, degan taxminlar mavjud bo‘lgan gumon qilinuvchining poyafzali;
- hodisa joyidagi izlar shu shaxs tomonidan qoldirilgan, degan taxminlar mavjud bo‘lgan gumon qilinuvchining poyafzalidan olingan eksperimental sirtiy izlar;
- hodisa joyidagi izlar shu shaxs tomonidan qoldirilgan, degan taxminlar mavjud bo‘lgan gumon qilinuvchining poyafzalidan olingan hajmiy izlar;
- hodisa joyidagi izlar shu shaxs tomonidan qoldirilgan, degan taxminlar mavjud bo‘lgan gumon qilinuvchining poyafzalidan olingan eksperimental izlarning fotosuratlari;
- hodisa joyidagi izlar shu shaxs tomonidan qoldirilgan, degan taxminlar mavjud bo‘lgan gumon qilinuvchining poyafzalidan olingan gipsli quyma nusxalar hisoblanadi.

Hosil bo'lish mexanizmiga qarab, oyoq va poyafzal izlari hajmiy va yuzaki izlarga bo'linadi. Poyafzal yoki oyog'i hajmiy va yuzaki (sirtiy) izlarining shakllanishiga quyidagilar muhim ta'sir ko'rsatadi:

- poyafzal yoki odam oyog'i kafti bilan iz qabul qiluvchi obyekt sirtining o'zaro ta'sirlashishini keltirib chiqaradigan asosiy kuchlanish (ta'sir)ning yo'nalishi va kattaligi;
- o'zaro ta'sirlashishning uzoq muddatliligi;
- poyafzal yoki odam oyog'i kafti va iz qabul qiluvchi sirtida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan turli begona moddalar;
- iz qabul qiluvchi sirt yoki uning ustida mavjud bo'lgan moddalarning qoldiq deformatsiyani saqlab qolish, qatlamlanadigan moddalar zarralarini ushlab qolish yoki sirtidagi qatlamni oson ko'chirish xususiyatlari.

Oyoq yoki poyafzal izlarining shakllanishida alohida xususiyat bo'lib, odam tanasining og'irligi va mushaklar energiyasi, shuningdek odam harakatlanganda yuzaga keladigan inersiya kuchiga bog'liq bo'lgan asosiy kuchlanish (ta'sir) hisoblanadi. Ba'zan ko'rib chiqilayotgan izlarning hosil bo'lishi asosan odam tanasining og'irligi (masalan, to'xtab turganida) yoki uning mushak kuchlari (masalan, vertikal joylashgan sirtidan oyoq bilan sakraganda yoki oyoq bilan zarb berganda)ga ta'sir hisobidan yuzaga keladi. Inersiya kuchi tayanch sirt bo'ylab yurishda, yugurganda va sakraganda oyoq yoki poyafzalning olg'a siljishi (harakati)ni keltirib chiqaradi. Oyoq yoki poyafzal tagcharmi tashqi tuzilishining belgilari yuzaga keladigan izlarda tiniq aks etadi.

Poyafzal iz hosil qiluvchi obyekt sifatida bir qator identifikatsion belgilarga egadir. Bu belgilar poyafzalda uni tayyorlash, kiyish va ta'mirlash jarayonida hosil bo'ladi. Poyafzal o'zaro biriktirilgan ustki va ostki qismlardan iborat. Tadqiqot jarayonida poyafzal kaftining tashqi detallari ancha muhim trasologik ahamiyatga molikdir. Ular sirasiga tagcharm, tagcharmning panja qismi, poshna, nag'al va baxya kiradi. Tagcharm shartli ravishda quyidagi qismlarga bo'linadi: panja qismi, oraliq qismi va poshna. Tagcharm, poshna va panja qismning yon tomoni kesik (chet)lari, deb ataladi. Tagcharmdagi kesiklar ichki, tashqi, old (tumshuq) va orqa; poshnada – old, yon (o'ng va chap) hamda orqaga bo'linadi. Panja qismlar tumshuq (panja qismning old qismi), yon (o'ng va chap; ba'zan ularni ichki va tashqi deb ham atashadi) hamda orqa (poshnaning qarama-qarshi tomonidagi) kesiklarga egadir. Poyafzal ostki qismidagi identifikatsion belgilarning barqarorligi nisbiydir. Vaqt o'tishi bilan ular qisman o'zgarishi yoxud yo'qolib ketishi mumkin. Bu tagcharm materialining xususiyati, uning andozasi (modeli, fasoni), poyafzalning yeyilishi va unga tashqi omillarning ta'sir ko'rsatishiga bog'liqdir. Poyafzal tagcharmining identifikatsion belgilari umumiy va xususiy belgilarga bo'linadi. Ularning birinchisi tagcharmni to'lig'icha; ikkinchisi – uning ayrim qismlarini yoki detallarini tavsiflaydi. Topilgan oyoq izlarining jinoyat hodisasi bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash uchun sinchikovlik bilan ko'zdan kechirish o'tkaziladi. Bunda izlar hosil bo'lishining muddatidan dalolat beruvchi belgilarga, hodisa joyidagi predmetlarga nisbatan ularning joylashishiga va hodisa joyini ko'zdan kechirish jarayonida aniqlangan iz hosil bo'lishi

mumkin bo'lgan holatlarga e'tibor qaratiladi. Topilgan poyabzal va oyoq izlari tadqiqot jarayonida tekshiriladi va natijalar ekspert xulosasida aks ettiriladi.

Bugungi kunda trasologik ekspertizasining zamonaviy imkoniyatlari mavjud bo'lib ular orqali sodir etilgan jinoyatlarni issiq izidan ochish imkoniyatlari mavjuddir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Ekspert kriminalistika faoliyatini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 08.02.2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning "Ichki ishlar organlari xodimlari kuni" munosabati bilan tabrigi //https://iiv.uz/news/.
4. Trasologik ekspertiza: Darslik / S.A. Nurumbetova, T.B. Mamatqulov, X.A.Turabbayev va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi.
5. Trasologik ekspertizasi o'quv qo'llanma.